



QOBILIYATNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA OLIMLARNING ILMIY QARASHLARI

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti

Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada qobiliyat tushunchasi, uning inson psixikasidagi o'rni, shuningdek, psixologik xususiyatlari va rivojlanish omillari yoritib berilgan. Qobiliyat insonning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beruvchi individual psixologik xususiyat sifatida talqin qilinadi. U nafaqat tug'ma imkoniyatlar, balki ijtimoiy muhit, tarbiya va ta'lim jarayonida shakllanadigan omillar ta'sirida rivojlanadi.

Maqolada qobiliyatning individualligi, ijtimoiyligi va biologik asoslari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi. Shaxsdagi qobiliyatning rivojlanishi uning iqtidorini ochib berish, iste'dod va mahoratga erishish, jamiyatda faol o'rin egallash imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, qobiliyat inson faoliyatining samaradorligi, kasbiy yutuqlari hamda shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Olimlarning (S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov, A.N. Leontyev va M.E. Zufarova, E. G'. G'oziyev, A. Shoumarov va M. Ochilov) nazariyalari asosida qobiliyatning individual, ijtimoiy va biologik omillar bilan bog'liqligi tahlil qilingan.



Kalit so‘zlar: qobiliyat, iste’dod, individual xususiyat, faoliyat, temperament, psixologik rivojlanish., umumiy qobiliyat, maxsus qobiliyat, kognitiv jarayonlar, ta’lim va tarbiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СПОСОБНОСТЕЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие способности, её место в психике человека, а также психологические особенности и факторы развития. Способность трактуется как индивидуальная психологическая характеристика, которая обеспечивает успешное выполнение человеком определённой деятельности. Она формируется не только на основе врождённых возможностей, но и под воздействием социальных условий, воспитания и процесса обучения.

В статье анализируется взаимосвязь индивидуальных, социальных и биологических основ способностей. Развитие способностей личности определяет раскрытие её таланта, достижение мастерства и возможность занимать активное место в обществе. С этой точки зрения, способности играют важную роль в эффективности деятельности человека, его профессиональных успехах и становлении личности.

На основе теорий учёных (С.Л. Рубинштейн, Б.М. Теплов, А.Н. Леонтьев, М.Э. Зуфарова, Э.Г. Гозиев, А. Шоумаров и М. Очиллов) рассмотрена взаимосвязь способностей с индивидуальными, социальными и биологическими факторами.

Ключевые слова: способности, талант, индивидуальная особенность, деятельность, темперамент, психологическое развитие, общие способности, специальные способности, познавательные процессы, обучение и воспитание.



PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ABILITIES

Abstract

This article examines the concept of ability, its role in human psychology, as well as its psychological characteristics and developmental factors. Ability is interpreted as an individual psychological trait that enables a person to successfully perform a certain activity. It is formed not only on the basis of innate potential but also under the influence of social environment, upbringing, and the educational process.

The article analyzes the interconnection of the individual, social, and biological foundations of abilities. The development of a person's abilities determines the realization of their talent, the achievement of mastery, and the opportunity to take an active place in society. From this perspective, abilities play an important role in human activity efficiency, professional achievements, and personality formation. Based on the theories of scholars (S.L. Rubinstein, B.M. Teplov, A.N. Leontyev, M.E. Zufarova, E.G. Goziev, A. Shoumarov, and M. Ochilov), the relationship of abilities with individual, social, and biological factors has been analyzed.

Keywords: ability, talent, individual characteristic, activity, temperament, psychological development, general ability, special ability, cognitive processes, education and upbringing.

Kirish

Qobiliyat bu insonning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan shaxsiy psixologik xususiyatlar majmuasidir. Har bir insonda tugʻma imkoniyatlar mavjud boʻlsa-da, ularning rivojlanishi ijtimoiy muhit, tarbiya va shaxsning faoliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Qobiliyat faoliyatda namoyon boʻladi.



Biz bilamizki, ba'zi bir insonlar narsalarni tezlik o'zlashtirishlari va uni bajarishlarida bir birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir insonlar ishlarga ijodkorlik bilan yondashsa ba'zilar oddiy yondashadi. Insonlarning bu faoliyatlariga qarab ularning qanchalik qobiliyatli ekanliklarini aniqlash mumkin.

Faoliyatning biror turi sohasida qobiliyatning paydo bo'lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi. Qobiliyatlar aslida tug'ma va orttirilgan bo'ladi. Insonda rivojlanib, qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan xususiyatlar iste'dod deyiladi. Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz. Qobiliyat aslida 2 xil bo'ladi. Umumiy qobiliyatlar va maxsus qobiliyatlar. Umumiy qobiliyatlar xotira tafakkur, nutq ular barcha faoliyat uchun muhim sanaladi. Maxsus qobiliyatlar esa matematika, sport, texnikaga doir qobiliyatlar.

Qobiliyatning nazariy asoslariga to'htaladigan bo'lsa bu borada bir qancha o'zbek va rus olimlarimizning fikrlarini keltirishimiz mumkin. Bulardan;

M.E. Zufarova qobiliyatni insonning shaxsiy imkoniyatlari va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik sifatida talqin etadi. Uning fikricha, qobiliyat tarbiya va ta'lim orqali shakllanadi.

E.G'. G'oziyev qobiliyatni psixik jarayonlarning samaradorligi bilan bog'laydi. U qobiliyatni bilish jarayonlari (idrok, tafakkur, xotira, tasavvur) rivojlanishi bilan uzviy aloqada o'rganadi.

A. Shoumarov qobiliyatning shaxs faoliyatidagi motivatsion jihatlarini yoritadi. Unga ko'ra, qobiliyat shaxsning o'zini anglash va o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi bilan bog'liqdir.

M. Ochilov qobiliyatni shaxsning ijodiy faoliyatida ko'proq o'rganib, iste'dod va iqtidor tushunchalarini chuqur tahlil qiladi.



Rubinshteyn qobiliyatni insonning faoliyat jarayonida shakllanuvchi psixologik xususiyatlari bilan bog'laydi.

Unga ko'ra, qobiliyat faoliyatsiz mavjud bo'lolmaydi, ya'ni u faqat faoliyat davomida rivojlanadi.

K.K. Platonov qobiliyatni shaxs tuzilishining bir qismi deb qaraydi. U qobiliyatni biologik asos (nerv tizimi, temperament) va ijtimoiy asos (ta'lim, tarbiya)ning birligida tushuntiradi.

Demak qobiliyat insoning kognitiv jarayonlari bilan bog'liq bo'lib, u kognitiv jarayonlarni ham rivojlantirar ekan. Qobiliyatli inson yana kreativ inson sanaladi. Chunki u har bir ishni mukammal qilishga intiladi. Bunda insonda mukammalikka intilish hislari paydo bo'ladi. Shuning uchun ota-onalar va o'qtuvchilar bolalarning qobiliyatlarini qo'llab quvvatlashi kerak yoki qobilati yashirin bolalarni aniqlab ularga topshiriq va vazifalar berishi kerak. O'qtuvchi darsda bolalarni individual qobiliyatlarini inobatga olib dars bersa dars ham qiziqarli va o'quvchilar darsdan tez zerikib qolmaydilar va ana shu ustozning darslari o'quvchi yoshlar uchun qiziqarli dars hisoblanadi. Bu esa o'qtuvchining dars berish qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat nafaqat o'quvchilarda, balki pedagoglarning qobilayatlariga ham bog'liq.

Qobiliyatning rivojlanish omillari

- Biologik omillar: nerv tizimining xususiyatlari, irsiyat, temperament.
- Ijtimoiy omillar: oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy muhit.
- Individul omillar: shaxsiy qiziqish, motivatsiya, intilish.

Bu omillarning bari qobiliyatni yo oshiradi yo susaytiradi. Shuning uchun inson omillarni inobatga olib kuchli irodali bo'lgan holda qobiliyatini so'ndirmaslikka ya'ni ichki va tashqi motivatsalarini tushirmasliklari lozim.

Qobiliyatning rivojlanishida bir qancha omillae mavjud. Bulardan, muhit bu qobiliyatga ta'sir qiladi va u oila, jamiyat muhitidir. Ta'lim va tarbiya ham qobiliyatning rivojlanishi ta'sir qiladi. O'z o'zini rivojlantirish bu o'z ustida ishlab qobiliyatlarinin rivojlantiradi.



Ta'lim tizimida o'qtuvchining o'quvchiga faqat bilim berishi emas, uning maxsus, umumiy, ijodiy kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarni inobatga olib ularni rivojlantirish kerak. Bu jarayonda kuzatish, testlar, ijodiy topshiriqlar va faol metodlardan foydalanish muhim. Ulardan Ayzenk temperament testi – temperament turini (xolerik, sangvinik, flegmatik, melanxolik) aniqlaydi. Kettelning 16PF testi – shaxs qirralari va qobiliyatga ta'sir qiluvchi individual xususiyatlarni o'lchaydi. Xotira testlari (raqamlar ketma-ketligini eslab qolish). Diqqat testlari (Burdon testi, Schulte jadvallari). Tafakkur va idrok mashqlari. O'qituvchi yoki psixolog esa bolaning faoliyatini kuzatib, uning qiziqishlari, tezroq fanlarni o'rganishi, ijodiy yondashuvi orqali qobiliyat darajasini baholaydi.

Xulosa qilin aytadigan bo'lsak, qobiliyat inson faoliyatida muvaffaqiyatning muhim omili hisoblanadi. O'zbek olimlari qobiliyatni individual, ijtimoiy va biologik omillar o'zaro ta'siri natijasi sifatida ko'rib chiqib, uni shakllantirishda ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlaydilar. Oiladagi kata shaxslar ota- onalar bolalarini qobiliyatlarini hisobga olib ular bilan munosabatda bo'lib qobiliyatlarini shakllantirib biror bir mashg'ulotlarga berib borishlari kerak.

Foydalangan adabiyotlar:

1. M. E. Zufarova (2010) Umumiy psixologiya
2. G'oziyev, E. G'. (1996). Psixologiya. Toshkent: O'qituvchi.
3. Shoumarov, A. (2012). Umumiy psixologiya. Toshkent: Fan.
4. Shoumarov, A. (2015). Psixologiya asoslari. Toshkent: Innovatsiya.
5. Sunnatova, R. (2020). Ta'lim jarayonida diqqat vaxotiraning o'zaro aloqasi. Psixologiya va pedagogikajurnali, 2(3), 44–51.
6. Sunnatova, R. (2022). Talabalarda diqqatnirivojlantirish muammolari. Ta'lim va innovatsiya, 4(2), 87–95.



7. Xidirov, D. (2021). Yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
8. James, W. (1890). The Principles of Psychology. New York: Henry Holt.
9. Luria, A. R. (1973). The Working Brain. New York: Basic Books.
10. Posner, M. I., & Petersen, S. E. (1990). The attention system of the human brain. Annual Review of Neuroscience, 13, 25–42.
11. Carrasco, M. (2011). Visual attention: The past 25 years. Vision Research, 51(13), 1484–1525.